Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







SAHNALASTIRILGAN ADABIYOT DARSLARINING O‘QUVCHILAR NUTQIY VA IJODIY TARAQQIYOTIGA TA’SIRINI BAHOLASH VA TAJRIBA-SINOV NATIJALARI

Shaxloxon Xamidova
Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi
ona tili va adabiyoti fani o’qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23267803

Anotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6–9-sinflarida sahnalashtirish va dramatizatsiya texnologiyalari vositasida o‘tkazilgan adabiyot darslarining o‘quvchilar nutqiy hamda ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligi tajriba-sinov ishlari natijalari asosida ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida tajriba va nazorat guruhlarida o‘tkazilgan diagnostik kesimlar, statistik ko‘rsatkichlar hamda o‘quvchilarning nutqiy-ijodiy o‘sish dinamikasi qiyosiy o‘rganib chiqilgan. Shuningdek, sahnalashtirish mashg‘ulotlarining o‘quvchilardagi auditoriya oldidagi psixologik g‘ovlarni bartaraf etish va badiiy-estetik idrokni oshirishdagi amaliy natijalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tajriba-sinov ishlari, adabiyot ta’limi, sahnalashtirish, diagnostika, nutqiy kompetensiya, ijodiy kompetensiya, tajriba guruhi, nazorat guruhi, statistik tahlil, samaradorlik.

Аннотация: В этой статье на основе результатов опытно-экспериментальных работ проведен научный анализ эффективности уроков литературы, проведенных с использованием технологий инсценировки и драматизации в 6–9 классах общеобразовательных школ, в развитии речевых и творческих компетенций учащихся. В рамках исследования сравнительно изучались диагностические срезы, статистические показатели и динамика речевого и творческого роста учащихся в экспериментальной и контрольной группах. Также освещены практические результаты занятий по инсценировке в преодолении психологических барьеров перед аудиторией у учащихся и в повышении художественно-эстетического восприятия.

Ключевые слова: опытно-экспериментальная работа, обучение литературе, инсценировка, диагностика, речевая компетенция, творческая компетенция, экспериментальная группа, контрольная группа, статистический анализ, эффективность.

Annotation: This article scientifically analyzes the effectiveness of literature lessons conducted using staging and dramatization technologies in 6th–9th grades of general secondary schools in developing students' speech and creative competencies, based on experimental research results. Within the scope of the study, diagnostic sections conducted in experimental and control groups, statistical indicators, as well as a comparative study of the dynamics of students' speech-creative growth were examined. Additionally, the practical results of staging lessons in overcoming

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







students' psychological barriers in front of an audience and enhancing artistic-aesthetic perception are highlighted.

Keywords: experimental research, literature education, staging, diagnostics, speech competence, creative competence, experimental group, control group, statistical analysis, effectiveness.

Zamonaviy pedagogika va adabiyotni o‘qitish metodikasining asosiy vazifalaridan biri taklif etilayotgan innovatsion ta’limiy texnologiyalar hamda pedagogik modellar samaradorligini amaliy tajriba-sinov ishlari orqali xolis baholash va ilmiy jihatdan isbotlashdan iboratdir. Adabiyot ta’limida o‘quvchilarning nutqiy va ijodiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni uzoq muddatli hamda ko‘p omilli psixopedagogik hodisa bo‘lib, u ta’lim usullarining to‘g‘ri tanlangani va tizimliligiga bevosita bog‘liqdir. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6–9-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan kuzatuvlar va dastlabki tashxislar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy dars shakllari o‘quvchilarning nutqiy ekspressivligi, badiiy-ijodiy tasavvuri hamda emotsional-estetik idrokini yetarli darajada faollashtira olmayapti. Ushbu muammoni hal etish maqsadida ishlab chiqilgan sahnalashtirilgan adabiyot darslari orqali o‘quvchilarning nutqiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-metodik modeli hamda mos dramatizatsiya texnologiyalarining real o‘quv jarayonidagi samaradorligini tekshirish zaruriyati tug‘ildi[1]. Nazariy jihatdan asoslangan metodik tavsiyalar va mashqlar majmuasi maktab amaliyotida qanchalik amaliy natija berishini aniqlash, o‘quvchilarning nutqiy-ijodiy ko‘nikmalaridagi sifat va miqdor o‘zgarishlarini statistik usullar orqali asoslash ushbu tadqiqotning bosh maqsadi qilib belgilandi.

Tadqiqotning amaliy-tajriba bosqichi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6–9-sinf o‘quvchilari o‘rtasida tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlarida qamrab olingan o‘quvchilarning xolisligini va natijalarning haqqoniyligini ta’minlash maqsadida ikkita tenglashtirilgan guruh shakllantirildi. Nazorat guruhida (NG) mashg‘ulotlar an’anaviy dars ishlanmalari va tasdiqlangan standart adabiyot dasturi asosida olib borilgan bo‘lsa, Tajriba guruhida (TG) darslar biz tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik-metodik model, “Sinfiy dramatizatsiya”, “Rolga kirish”, “Subtekstni o‘qish” hamda emotsional-ekspressiv nutq mashqlari integratsiya qilingan holda tashkil etildi. Tadqiqot uchta mantiqiy bosqichda amalga oshirildi: muvofiqlashtiruvchi bosqichda o‘quvchilarning nutqiy va ijodiy kompetensiyalarining dastlabki darajasini aniqlash bo‘yicha diagnostik kesimlar o‘tkazildi; shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhlarida sahnalashtirilgan adabiyot darslari tizimli ravishda joriy etildi; nazorat bosqichida esa takroriy diagnostika o‘tkazilib, natijalar qiyosiy tahlil qilindi[2].

O‘quvchilarning nutqiy va ijodiy kompetensiyalarini baholashda to‘rtta asosiy mezon (nutqiy-ekspressiv, emotsional-psixologik, kognitiv-tahliliy hamda amaliy-ijodiy) va ular bo‘yicha uchta rivojlanish darajasi (Past, O‘rta, Yuqori) belgilab olindi. Past (reproduktiv) darajada o‘quvchi matnni monoton o‘qiydi, emotsional va intonatsion bo‘yoqlar yetishmaydi, sahnada tortinadi hamda faqat tayyor matnni qaytaradi. O‘rta (reproduktiv-ijodiy) darajada o‘quvchi intonatsiyadan qisman foydalanadi, personaj holatini tushunadi, lekin ijroda erkinlik yetishmaydi va improvizatsiyaga qiynaladi[3]. Yuqori (ijodiy-amaliy) darajada esa o‘quvchi nutqda intonatsiya, pauza va urg‘ulardan ustalik bilan foydalanadi, rolga to‘liq kiradi,

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







subtekstni ifodalay oladi va kutilmagan sahnaviy vaziyatda erkin improvizatsiya qila oladi.

6–9-sinf (12–15 yosh) o‘quvchilarining psixologik va nutqiy rivojlanish bosqichi o‘zining ziddiyatli xarakteri bilan ajralib turadi. Ushbu davrda gipofiz va nerv tizimidagi jadallashuv o‘smirlarda nutqiy emotsionallikning ortishiga, lekin shu bilan birga auditoriya oldida nutq so‘zlashda ijtimoiy-psixologik xavotir hamda tortinchchoqlikning kuchayishiga olib keladi[4]. O‘smir yoshdagi o‘quvchi o‘z shaxsiy “Men”ini namoyon qilishga intiladi, ammo an’anaviy darslardagi reproduktiv so‘rov va doska oldida javob berish shakli uning bu ehtiyojini bo‘g‘adi. Sahnalashtirish va dramatizatsiya texnologiyasi ushbu yosh inqirozini ijobiy tomonga yo‘naltiruvchi psixologik “bo‘shatish” (katarsis) mexanizmini beradi. Qahramon rolini o‘z ustiga olish orqali o‘quvchi psixologik jihatdan “himoya niqobi”ga ega bo‘ladi. Natijada, u o‘zining shaxsiy tortinchchoqligini unutib, personajning emotsional-ekspressiv holatini erkin va tabiiy namoyon eta boshlaydi. Mazkur holat o‘smirlarning nutqiy-ijodiy kompetensiyalarini tabiiy va bosimsiz rivojlantirishning asosiy psixopedagogik sharti hisoblanadi.

Tajriba-sinov ishlarida 6–9-sinf adabiyot darslarida qo‘llanilgan dramatizatsiya texnologiyalari shunchaki asarni sahnalashtirish emas, balki badiiy matn ustida chuqur tahliliy va psixolingvistik ishlashni nazarda tutdi. Xususan, 7-sinf adabiyot darsida Said Ahmadning “Ufq” romani hamda 8-sinfda Oybekning “Navoiy” romani parchalari bilan ishlashda quyidagi uch bosqichli metodik algoritm joriy etildi:

1. Matnni dramatik dekonstruksiya qilish. O‘quvchilar nasriy matndagi muallif remarkalarini va personajlarning ichki kechinmalarini aniqlab, ularni sahnaviy harakat hamda intonatsion ko‘rsatmalarga aylantirdilar. Masalan, "Navoiy" romanidagi Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro muloqoti parchasi tahlil qilinganda, o‘quvchilar so‘zlarning shunchaki talaffuziga emas, balki do‘stona munozara ortidagi davlatshunoslik mas’uliyatini ifodalovchi pauzalarga e’tiborni qaratdilar.

2. Mikro-ssenariylashtirish va “O‘qilayotgan rol” usuli. O‘quvchilarga 10–12 satrdan iborat ixcham epizodlar berilib, matndagi mantiqiy urg‘u berilishi kerak bo‘lgan kalit so‘zlar va so‘z birikmalarini belgilash topshirildi. Mantiqiy urg‘uning o‘zgarishi bilan qahramon psixologiyasi va asar pafosining qanday o‘zgarishi amalda ko‘rsatib berildi. Bu usul o‘quvchilarning monoton o‘qish odatini tugatib, ifodali-ekspressiv nutq kompetensiyasini shakllantirdi.

3. Empatik muloqot va improvizatsiya. Asardagi konfliktdan kelib chiqib, qahramonlar muloqoti kutilmagan nuqtada to‘xtatildi va o‘quvchilarga “Agar siz ushbu personaj o‘rnida bo‘lganingizda nutqni qanday davom ettirardingiz?” degan muammoli savol berildi. Bu orqali o‘quvchilar badiiy matn chegarasidan chiqib, shaxsiy va ijodiy fikrlash mahoratini namoyish etdilar[5].

Olingan tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatadiki, adabiyot darslarida sahnalashtirish texnologiyalaridan tizimli foydalanish bir qator muhim pedagogik samaralarni beradi. Birinchidan, o‘quvchilarning rol ortiga yashirinishi va dramatik obraz orqali muloqot qilishi ulardagi auditoriya oldida gapirish, ifodali o‘qishdagi hayajon hamda psixologik to‘siqlarni bartaraf etdi. Ikkinchidan, rolni ijro etish jarayonida o‘quvchilar mantiqiy urg‘u va pauzalarni ongli ravishda qo‘llay boshladilar, nutqdagi monotonlik va sun’iylik yo‘qolib, intonatsion soflik shakllandi. Uchinchidan, sahnalashtirish jarayoni o‘quvchini matn ostidagi yashirin ma’nolarni

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







(subtekstni) izlashga va muallif g‘oyasini emotsional anglashga majbur qildi, bu esa ularning ijodiy va tahliliy fikrlashini faollashtirdi.

Olib borilgan tadqiqot va tajriba-sinov ishlarining yakuniy xulosalariga tayanib, umumiy o‘rta ta’lim amaliyotiga taklif etilgan pedagogik-metodik model va dramatizatsiya mashqlarini dars jarayoniga doimiy element sifatida kiritish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning nutqiy va ijodiy kompetensiyalarini baholashda ishlab chiqilgan mezonlar tizimidan foydalanish, adabiyot darsliklaridagi asarlar bo‘yicha tayyorlangan mikro-ssenariylar to‘plamlarini chop etish hamda o‘qituvchilar uchun darsda teatr pedagogikasi usullarini qo‘llash bo‘yicha amaliy treninglar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan ilmiy-nazariy va amaliy-tajriba tadqiqotlari adabiyot darslarida sahnalashtirish hamda dramatizatsiya texnologiyalaridan tizimli foydalanish 6–9-sinf o‘quvchilarining nutqiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning yuqori samarali vositasi ekanligini to‘liq tasdiqlaydi. O‘smirlik yoshidagi o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda dars jarayoniga dramatizatsiya elementlarining kiritilishi psixologik katarsis hamda “himoya niqobi” effektini berib, o‘quvchilardagi auditoriya oldida nutq so‘zlash xavotiri va tortinchchoqlikni bartaraf etadi, ularda nutqiy-emotsional erkinlikni shakllantiradi. Badiiy matnni dramatik dekonstruksiya qilish, mikro-ssenariylashtirish hamda empatik improvizatsiya mashqlari o‘quvchilarni matn ostidagi yashirin ma’nolarni (subtekstni) uqishga va asar pafosini intonatsion jihatdan to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatadi. Shulardan kelib chiqqan holda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining adabiyot darslariga dramatizatsiya mashg‘ulotlarini tizimli pedagogik element sifatida integratsiya qilish, darsliklardagi asarlar negizida mikro-ssenariylar to‘plamlarini chop etish hamda adabiyot o‘qituvchilarining malakasini oshirish kurslariga teatr pedagogikasi bo‘yicha amaliy trening modullarini kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo‘ldoshev Q. Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil va adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi” 2021.
2. Qosimov O. Ifodali o‘qish va badiiy nutq uslubiyoti. – Toshkent: “O‘qituvchi” 2018.
3. Matchonov S. Adabiyot o‘qitish uslubiyoti. – Toshkent: “Fan va texnologiya” 2015.
4. Gracheva L. V. Актерский тренинг: “Теория и практика”. — СПб.: Речь, 2010.
5. Stinson, M., & Freebody, K. Drama and Literacy Learning: Research in Practice. — “Routledge” 2014.